

Date: 9th July-2026

SURXON-SHEROBOD VOHASI AHOLISINING AN'ANAVIY VAQT HISOBLASH TIZIMI

Kichkilov Sherxon Xamzayevich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

+998 99 281 81 81 <https://t.me/Kichkilov>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxon–Sherobod vohasi aholisining an'anaviy vaqt hisoblash tizimi etnografik va tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda voha aholisining sutkani kun va tun qismlariga ajratish usullari, vaqtni Quyosh, Oy, yulduzlar va soyaning uzunligi orqali aniqlash an'analari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, sahar, nahor, choshgoh, tush, asr, oqshom, xufton va subhidam kabi vaqt birliklarining xalq turmush tarzi, diniy marosimlari va xo'jalik faoliyatidagi o'rni ochib berilgan. Maqolada vaqt hisoblash bilan bog'liq xalqona astronomik bilimlar hamda ularning Surxon–Sherobod vohasining etnomadaniy merosidagi ahamiyati tarixiy-etnografik yondashuv asosida baholangan.

Kalit so'zlar: Surxon–Sherobod vohasi, vaqt hisobi, xalq astronomiyasi, sutka bo'linishi, sahar, choshgoh, asr, oqshom, xufton, subhidam, etnografiya, tarixiy geografiya, xalq taqvim, an'anaviy bilimlar.

Abstract: This article examines the traditional time-reckoning system of the population of the Surkhan–Sherabad oasis based on historical and ethnographic sources. The study analyzes the traditional division of the day and night, as well as methods of determining time through observations of the Sun, the Moon, stars, and the length of shadows. Particular attention is paid to traditional time units such as *sahar*, *nahor*, *choshgoh*, *tush*, *asr*, *oqshom*, *xufton*, and *subhidam*, highlighting their role in everyday life, religious practices, and agricultural activities. The article also evaluates the significance of indigenous astronomical knowledge as an integral part of the ethnocultural heritage of the Surkhan–Sherabad oasis from a historical and ethnographic perspective.

Keywords: Surkhan–Sherabad Oasis, time reckoning, folk astronomy, division of the day, sahar, choshgoh, asr, twilight, ethnography, historical geography, traditional calendar, indigenous knowledge.

Аннотация: В статье на основе исторических и этнографических источников исследуется традиционная система исчисления времени населения Сурхан-Шерабадского оазиса. Рассматриваются народные способы деления суток на дневные и ночные периоды, а также методы определения времени по Солнцу, Луне, звёздам и длине тени. Особое внимание уделено таким традиционным временным понятиям, как сахар, нахор, чошгох, туш, аср, окшом, хуфтон и субхидам, их роли в хозяйственной деятельности, религиозной практике и повседневной жизни населения. В статье также раскрывается значение народных астрономических знаний как важной составной части историко-культурного наследия Сурхан-Шерабадского оазиса.



Date: 9th July-2026

Ключевые слова: Сурхан-Шерабадский оазис, исчисление времени, народная астрономия, деление суток, сахар, чошгох, аср, окшом, хуфтон, субхидам, этнография, историческая география, народный календарь, традиционные знания.

Surxon–Sherobod vohasi aholisi tomonidan qo‘llanilgan an‘anaviy vaqt hisoblash tizimi ko‘p asrlik kuzatuvlar, astronomik hodisalar hamda xalqning kundalik turmush tajribasi negizida shakllangan. Ushbu tizim faqat vaqtni aniqlash vositasi bo‘libgina qolmay, balki voha aholisining xo‘jalik faoliyati, diniy marosimlari, urf-odatlar va ijtimoiy hayotini tartibga soluvchi muhim madaniy hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, mexanik soatlar keng ommalashmagan davrlarda kun va tunning tabiiy belgilariga asoslangan vaqt hisoblash usullari voha aholisining kundalik hayotida alohida ahamiyat kasb etgan.

Etnografik kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Surxon–Sherobod vohasida vaqt tushunchasi faqat sutka yoki yil hisobigina emas, balki kunning qismlari, hafta, oy, yil va muchal tizimi orqali ham ifodalangan. Mazkur tizim tabiat hodisalari, Quyosh va Oyning osmondagi holati, yulduzlarning ko‘rinishi hamda insonlarning mehnat faoliyati bilan chambarchas bog‘liq holda shakllangan. Shu jihatdan vohada qo‘llanilgan vaqt hisobi astronomik kuzatuvlar va xalq tajribasining uyg‘unlashuvi natijasi sifatida baholanishi mumkin[1:486].

Kunning boshlanishi voha aholisi tasavvurida sahar vaqti bilan bog‘langan. Sahar — tong yorishishidan avvalgi, osmon hali qorong‘i bo‘lsa-da, yangi kun yaqinlashayotganini bildiruvchi davr hisoblangan. Aynan shu payt musulmon an‘analarda ibodat, duo va saharlik uchun eng muborak vaqt sifatida e‘tirof etilgan. Sahardan keyin nahor bosqichi boshlanib, sharq tomonda tong shafag‘i ko‘rina boshlaydi, biroq Quyosh hali ufqdan ko‘tarilmagan bo‘ladi. Ushbu vaqt bomdod namozini ado etish bilan bog‘liq bo‘lib, voha aholisi orasida kunning eng fayzli va serbaraka pallasidan biri sifatida qadrlangan.

Quyosh ufqdan ko‘tarilib, taxminan ikki nayza bo‘yi balandlikka yetgach choshgoh vaqti kirgan deb hisoblangan. Bu davr voha aholisining kundalik mehnat faoliyatida alohida o‘rin tutgan. Ayniqsa, dehqonlar va chorvadorlar tong sahardan boshlangan mehnatdan so‘ng aynan choshgoh vaqtida qisqa hordiq chiqarib, nonushta qilganlar. Islom an‘anasida esa ushbu paytda ishroq yoki chosh namozini ado etish tavsiya etilgan. Demak, choshgoh nafaqat astronomik vaqt birligi, balki mehnat va diniy hayotning muhim kesishuv nuqtasi hisoblangan[2:286].

Quyosh osmonning eng yuqori nuqtasiga yetganda tush vaqti boshlanadi. Uning eng markaziy nuqtasi xalq orasida tol tush deb yuritilgan. Bu vaqt kundalik mehnatning muayyan bosqichi yakunlanishi, qisqa dam olish va ovqatlanish bilan bog‘liq bo‘lgan. Tushdan keyin Quyosh g‘arb tomonga og‘a boshlashi bilan yangi vaqt oralig‘i boshlanadi.

Quyoshning g‘arbiga og‘ishi natijasida predmetlar soyasi o‘z bo‘yidan ikki baravar ortgan payt asr yoki xalq tilida nomozidigar vaqti deb atalgan. Surxon–Sherobod vohasida ushbu davr nafaqat namoz vaqti, balki xalq e‘tiqodlarida ham alohida o‘rin egallagan. Mahalliy an‘analarga ko‘ra, nomozidigar vaqtida ovqat yeyish, uzoq safarga chiqish yoki



Date: 9th July-2026

yangi ish boshlash ma'qul hisoblanmagan. Xalq orasida bu paytda boshlangan ish barakali bo'lmaydi, degan qarash avlod-dan-avlodga o'tib kelgan. Bunday tasavvurlar voha aholisining vaqtni nafaqat astronomik hodisa, balki ma'naviy va diniy qadriyat sifatida ham qabul qilganligini ko'rsatadi.

Surxon vohasi cho'ponlari va dehqonlari mexanik soatlar ommalashmagan davrlarda vaqtni aniqlashning amaliy usullaridan ham foydalanganlar. Tarixchi-etnograf E. Qobulovning qayd etishicha, chorvadorlar kun vaqtini inson soyasining uzunligi orqali aniqlashgan. Masalan, soya uzunligi ikki qadamga teng bo'lsa, bu peshin vaqtiga, taxminan yoz faslida soat 12:00 atrofidagi davrga to'g'ri kelgan. Soya uzunligi o'n uch qadamga yetganda esa xufton vaqti, ya'ni kechki soatlar boshlangan deb hisoblangan. Mazkur usul xalq astronomiyasi va amaliy geografik bilimlarning o'ziga xos namunasidir[3:384].

Quyosh ufq ortiga botishi bilan voha aholisi oqshom davri boshlanganini e'tirof etgan. Quyosh botgach ham osmonda saqlanib qoladigan qizg'ish shafaq yo'qolguniga qadar bo'lgan vaqt nomoshom yoki nomozshom deb atalgan. Aynan shu davr shom namozining vaqti hisoblangan bo'lib, kunning yakunlanishi va tungi hayotning boshlanishini ifodalagan.

Surxon-Sherobod vohasi aholisi tunni ham o'ziga xos tarzda bir necha bosqichlarga ajratgan. Etnografik ma'lumotlarga ko'ra, tun yetti davr asosida tasniflangan bo'lib, har bir davr osmondagi sayyoralar va yulduzlarning ko'rinishi bilan bog'langan. Jumladan, quyosh botganidan keyingi dastlabki qorong'ilik oqshom (Atorud), undan keyingi davr xufton (Oy), tunning o'rtasi yarim kecha (Zuhal) deb atalgan. Yarim kechadan keyingi davr birinchi xo'roz qichqirishi bilan belgilanib, Mushtariy nomi bilan yuritilgan. Tong otishidan avvalgi davr subhi qozib, ya'ni "yolg'onchi tong" deb atalgan bo'lsa, undan keyingi haqiqiy tong yorishishi subhidam yoki erta tong (Zuhra) sifatida e'tirof etilgan. Ushbu tasnif voha aholisining osmon jismlarini kuzatish bo'yicha yuqori darajadagi amaliy bilimlarga ega bo'lganligini ko'rsatadi[4:152].

Surxon-Sherobod vohasida shakllangan vaqt hisoblash tizimi diniy qarashlar, xalq astronomiyasi va xo'jalik ehtiyojlarining uzviy uyg'unlashuvi natijasida vujudga kelgan. Dehqonchilik, chorvachilik va karvon savdosiga asoslangan turmush tarzi vaqtni aniq belgilashni talab qilganligi sababli tabiat hodisalari, Quyoshning holati, yulduzlar va soyaning uzunligi asosiy mezon vazifasini bajargan. Shu bois vohada shakllangan vaqt hisoblash tizimi Markaziy Osiyo xalqlarining an'anaviy astronomik bilimlari va etnomadaniy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanishi mumkin[5:520].

Xulosa qilib aytganda, Surxon-Sherobod vohasi aholisining an'anaviy vaqt hisoblash tizimi tabiat hodisalarini kuzatish, diniy qadriyatlar va xalq tajribasi asosida shakllangan murakkab etnomadaniy tizimdir. Kunning va tunning bosqichlarga ajratilishi, soya orqali vaqtni aniqlash usullari hamda vaqt bilan bog'liq xalqona tasavvurlar voha aholisining astronomik bilimlari yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Mazkur an'analarni o'rganish tarixiy etnologiya, xalq astronomiyasi, tarixiy geografiya va xronologiya fanlari uchun muhim ilmiy manba hisoblanadi.



Date: 9th July-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar / Arab tilidan A. Rasulov tarjimasini. – Toshkent: Fan, 1968. – 486 b.
2. Madraimov A., Fuzailova G. Manbashunoslik. – Toshkent: Fan, 2008. – 286 b.
3. Ahmedov B.A. O'zbekiston tarixi manbalari. – Toshkent: O'qituvchi, 2001. – 384 b.
4. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya va kartografiya: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 152 b.
5. Bartold V.V. Turkiston mo'g'ullar istilosi davrida. – Toshkent: Fan, 1990. – 520 b.

